

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**TALABA YOSHLARNI
OILAVIY MUNOSABATGA
TAYYORLASHNING
PEDAGOGIK ASOSLARI**

O‘quv qo‘llanma

TOSHKENT – 2019

UO‘K 37.018.1-057.875(075)

KBK 74.90

X 31

Hasanova, Kibriyo.

H 31 Talaba yoshlarni oilaviy munosabatga tayyorlashning pedagogik asoslari [Matn] : o‘quv qo‘llanma / K.Hasanova, M.Po‘latova, D.Qurbonova. – Toshkent: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2019. – 168 b.

UO‘K 37.018.1-057.875(075)

KBK 74.90

Yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalamay turib, ularni ma’naviy komolotga yetkazish, jamiyatni ijtimoiy rivojlanishini ta’minlash mumkin emas.

Talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ma’naviy yuksak e’tiqodga ega bo‘lgan umuminsoniy fazilatlar ruhida shakllantirish, yuqori malakali mutaxassis qilib yetishtirish bugungi kunning dolzarb muammosi sanaladi.

Mazkur o‘quv qo‘llanma ushbu muammoni bartaraf etishning pedagogik jihatlarini har tomonlama tahlil etishga bag‘ishlangan. Shu bois o‘quv qo‘llanmadan ilmiy izlanuvchilar, oliy o‘quv yurtlari talabalari, magistrlar, doktorant va professor-o‘qituvchilar, o‘qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti tinglovchilari hamda ushbu mavzuga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi foydalanishlari mumkin.

Mas’ul muharrir:

Sh.O. Mahmatmurodov – dotsent

Taqrizchilar: M. Mahmudova – p.f.d.,

S. Musinov – p.f.n. dotsent

ISBN 978-9943-5490-3-6

©«O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2019

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonining mohiyati to‘laqonli ochib berilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2018-yilining 28-dekabrida Oliy Majlis deputatlariga murojaatida yoshlarimizga munosib ta’lim berish, ularning ilm-fanga bo‘lgan intilishlarini ro‘yobga chiqarish, shu maqsadda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish, o‘rta va oliy o‘quv yurtlarining moddiy-texnika bazasini, ilmiy va o‘quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilash kerakligi haqida to‘xtalib, buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishga e’tibor qaratishimiz kerakligini alohida ta’kidlab o‘tdilar¹.

2017–2021-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha «Harakatlar strategiyasi» qabul qilindi va uning IV qismi – «Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari» deb nomlandi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga bag‘ishlangan 4.2-bandi esa aynan dolzarb masala bo‘lgan, oilaviy hayotda tez-tez uchrab turadigan muammolarini yechish yo‘llarini izlab topish, hayotga tatbiq etish deb o‘ylaymiz.

Oila jamiyatning bir bo‘g‘inidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi XIV bobining 63-moddasida «Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega», 64-moddasida «Ota-onalar o‘z farzandlarini voya-

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabr Oliy Majlis deputatlariga murojaatidan. \\ «Xalq so‘zi».

ga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar»¹ va 66-moddasida esa «Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar» kabi-larda oilada bola tarbiyasining mohiyati, mazmuni to‘la o‘z ifo-dasini topgan.

Mazkur moddalar mazmuni oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini-ligini, ota-onalarning farzandlari oldidagi ijtimoiy-tarbiyaviy burchi, vazifalari va voyaga yetgan farzandlarning ota-ona oldi-dagi mas‘uliyati, burchi va vazifasi huquqiy jihatdan asoslab be-riilgan.

«Talaba yoshlarni oilaviy munosabatga tayyorlashning peda-gogik asoslari» nomli ushbu o‘quv qo‘llanmani o‘zlashtirish jara-yonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talabalar:

– oila va oilaviy hayot muammolarini yoritib beruvchi davlat hujjatlari va buyuk olimu allomalarning fikrlarini nazariy, amaliy va uslubiy asoslarini o‘rganishi;

– zamonaviy pedagogik innovatsion texnologiyalardan foy-dalanib odob-axloq asoslari, talaba yoshlarda ma‘naviy-axlo-qiy odatlarni tarbiyalashning vazifalari, amaliyotda o‘qitish va ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashi

– zamonaviy metod va vositalarni qo‘llash, ma‘lum vaziyatlar-da ularni unumli ishlatib olish, ta‘lim jarayonini zamonaviy pe-dagogik texnologiyalar, Sharq va G‘arbning ilg‘or pedagogik taj-ribalaridan foydalangan holda tashkil eta bilishi;

– buyuk allomalar va chet el psixologlari tadqiqotlari bo‘yi-cha baxtli oila qurish malakalariga ega bo‘lishi va amaliyotda o‘qitish va ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashning metod va vositalarini qo‘llashni bilishi kerak;

– pedagogik vaziyatlar, ta‘lim va tarbiya natijalarini tahlil eta olishi, oilaviy o‘zaro nozik muomala-munosabatlarni kelajak ha-yotda qo‘llashga ega bo‘lishi;

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: «O‘zbekiston», 1992. – 20–21-betlar.

– zamonaviy ta’lim texnologiyasi kompyuter, axborot texnologiyasi, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, pedagogik mazmundagi amaliy, ilmiy-tadqiqot topshiriqlarini bajarishni bilish va qo’llay olish ko’nikmalariga ega bo’lishi;

– pedagogik innovatsion texnologiyalarni, pedagogik mahoratni qo’llash va mustahkamlash, dars o’tish jarayonida ta’lim usullarini tanlay olish malakalariga ega bo’lishi lozim.

Mazkur o’quv qo’llanmada oilaviy hayot muammolari bo’yicha umumiy va xususiy bilimlar berishga oid masalalar qamrab olingan bo’lib, ularning inson kamolotida tutgan o’rnini yoritib berishga asosiy e’tibor qaratilgan. Bunda, oila va oilaviy hayot muammolari, asosiy tushunchalari va ularning eng muhim qonuniyatlarini ochib berish ko’zda tutiladi.

Fanni o’qitishda mavjud mavzuning barchasi oila va oilaviy hayot muammolarini yoritib beruvchi davlat hujjatlari va buyuk olimlaru allomalarning fikrlari, ilg’or pedagogik texnologiyalar asosida o’tiladi. Mavzularning mazmuni va hajmiga qarab ularda ilg’or pedagogik innovatsion texnologiyalarning ayrim usul va texnikalari hamda hayotiy voqealardan foydalaniladi.

Fanning vazifalari – oila va oilaviy hayot muammolari fani bo’yicha talabalarning bilimlarini kengaytirish hamda yangi tushuncha va qarashlar bilan qurollantirish; dars jarayoniga oila va oilaviy hayot muammolarini yoritib beruvchi davlat hujjatlari va buyuk olimlaru allomalarning fikrlari, ilg’or tajribalarini tatbiq qilish, har bir mavzu bo’yicha bu sohada aniq rejalarni tuzish va amalga oshirish; pedagogik meros va uning g’oyalariга nisbatan to’g’ri munosabatda bo’lish, ko’nikma va malakalarni shakllantirish; oila va oilaviy hayot muammolarini yoritib beruvchi davlat hujjatlari va buyuk olimlaru allomalarning fikrlarini, chuqurroq o’rgatish va amaliyotda qo’llashni tashkil etishdan iborat.

I BOB. OILA VA OILAVIY HAYOT MUAMMOLARI ZAMONAMIZ DOLZARB MASALASI

Tayanch iboralar: *oila; oilaviy hayot; nikoh va oila; qizlar tarbiyasi; er-xotin munosabatlari; urf-odatlar; an'analar; madaniyat; turmush tarzi; baxtli yashash; farovon turmush; o'zaro munosabatlari.*

Oila «Inson» deb atalguvchi binoning faqat poydevorini quyish bilan cheklanmasdan, balki uni so'nggi g'ishti qo'yilgunga qadar unga naqsh berib, so'nggi bo'yoq o'z joyini topgunga qadar mutlaqo javobgardir.

Ota-ona – san'atkor, bola – san'at asari, tarbiya jarayoni esa san'atning o'zidir.

Oila a'zolarining o'zaro aloqasi ko'p qirraligi bilan xarakterlanadi. Bunga iqtisodiy, g'oyaviy, aqliy, hissiy, psixologik, jinsiy, axloqiy qarindoshlik munosabatlari kiradi.

Oiladagi o'zaro aloqaning xususiyatlariga tabiiylik, barqarorlik, qarindoshlik, yagona manfaatni ko'zlash kiradi.

Hamma hayotda baxtli yashashni orzu qiladi. Shu maqsadda dastlab yuz ming bir reja tuzadi, kelajak hayotini xayolida tasavvur qilib, unga erishish uchun yelib-yuguradi.

Oilaviy munosabatlar nihoyatda murakkab va bir-biriga bog'liq bo'lib, qadim zamonlardan bashariyat ahlining diqqat markazida bo'lgan.

Birgalikdagi oilaviy hayot barcha yoshdagi odamlar uchun, qaysi jins, irq, fe'l-atvor, ma'lumot, kasbu koridan qat'i nazar, katta bir sinov maydonidir. Bu masala o'tmish ajdodlarimizni qay darajada tashvishga solgan bo'lsa, bugungi kun avlodlarini ham tinch qo'ygani yo'q. To insoniyat yashar ekan, insoniy munosabatlar muammosi tugamaydi. Oilaviy munosabatlar masalasi juda keng ilmlarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham ko'pgina fan sohalari uni tekshirish va o'rganish bilan band. Dunyoda bu masalaga to'qnash kelmagan inson yo'q. Yoshlar

baxtni, oilaviy hayotni kechalari uxlamasdan, sevgi haqidagi kitoblar, ishq-muhabbatga to'la she'rlar o'qish bilan, mahjublarini ko'z oldiga keltirib, shirin-shirin xayol surish bilan tasavvur qilishadi. Kattalar – ota-ona, qavmu qarindoshlar esa hayotga real ko'z bilan qarab, farzandlarini baxtli hayot kechirishlarining tashvishini qilishadi.

Qadim tarixdan ma'lumki, olimlarning butun bir avlodi shaxs va jamiyat aloqalari tizimida insonning tub mohiyatini anglash, uning rivojlanishi va kamol topishi qonuniyatlarini izlaganlar. Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Ibn Sino, Beruniy kabi yuzlab Sharq allomalari ham asarlarida bu o'zaro bog'liqlikning falsafiy va ijtimoiy sirlarini ochishga harakat qilganlar. Barcha qarashlar uchun umumiy bo'lgan narsa – bu odamni, uning mohiyatini anglash uchun avvalo uning shu jamiyatda tutgan o'rni va mavqeini aniqlash zaruratidir. Shundan kelib chiqqan holda shaxsni o'rganishning birlamchi mezoni ham uning ijtimoiy mavqei, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'rni bilan belgilanishi kerak.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonining mohiyati to'laqonli ochib berilgan.

Hurmatli Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev «O'zbekiston xalqiga Navro'z tabrigi»da «Biz eng avvalo onalarimiz, ayollarimiz va farzandlarimiz, butun xalqimizni rozi qilishni o'z oldimizga ezgu vazifa qilib qo'yganmiz. Va bu oliy maqsadga albatta erishamiz. Shunda hayotimiz yanada obod va farovon bo'ladi» deganlarida teran ma'no bor.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan «Dunyoning eng baxtli mamlakatlari – 2018» mavzusida tadqiqot o'tkazildi. Har qaysi mamlakatning o'z fuqarolarini baxtli hayot bilan ta'minlash qobiliyatini ifodalaydigan ushbu indeks bo'yicha, O'zbekiston 156 davlat orasida 44-, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida esa 1-o'rinni egalladi. Shuning uchun zamonaviy ta'lim dastur-

lari qatori, talabalarimiz uchun muhim bo'lgan muammo «Talaba yoshlarni oilaviy munosabatga tayyorlashning pedagogik asoslari» tanlov fanini o'rganishlari ham dolzarb hisoblanadi.

Hurmatli Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev 2019-yilda mam-lakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Maj-lis Parlamentiga Murojaatnomasini bayon etganida: «Bugun biz shiddat bilan o'zgarib borayotgan zamonda yashamoqdamiz. Dunyo miqyosida manfaatlar kurashi, raqobat tobora avj olib, xalqaro vaziyat keskinlashib bormoqda. Bu – hayot sinovlari-da toblangan, so'zida qat'iy turadigan, ishning ko'zini biladigan, mehnatkash, mard va matonatli xalqimizdir.

Biz bugun ko'p millatli xalqimizga, barchamizning umidimiz va suyanchimiz bo'lgan yoshlarimizga ishonib, marrani katta ol-moqdamiz.

Aziz farzandlarimiz, nabiralarimiz baxtini, kamolini o'ylab, el-yurtimizning, xalqimizning yorug' kelajagini ko'zlab, oldimiz-ga ulkan vazifalar qo'ymoqdamiz» – deyildi¹.

1.1. Oilaviy hayotga tayyorlashning nazariy asoslari

O'zbekiston Respublikasining «Oila kodeksi» (1998-yil 30-aprelda tasdiqlangan) 2-bo'lim 3-bobi asosan nikoh tuzish tarkibi va shartlari masalalarini yoritishga qaratilgandir. Jamiyat nikoh vositasi bilan erkak va ayol o'rtasidagi tabiiy munosabat-larni tartibga solib turadi, er-xotin, ota-ona va farzandlar orasida axloqiy majburiyatlar o'rnatadi.

Er-xotinlar oilada ham, shaxsiy va mulkiy masalalarda ham teng huquqlidir. Bu konstitutsiyaviy qoida bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan (46-modda). Bizning jamiyatimizda ayol bilan erkakning oilaviy munosabat-lari teng huquqlilikka asoslanadi (Oila kodeksi 1-bo'lim 2-mod-

¹ O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlis deputatlariga murojaatidan. \ \ «Xalq so'zi».

da). Oilada er-xotin bab-baravar majburiyatlarga ega, ular bir-biriga ma'naviy yordam berib, ko'makdosh bo'lib yashaydilar. O'zbekiston Respublikasining «Nikoh va oila kodeksi» 25-moddasiga muvofiq er-xotinning birgalikda, nikohda turgan davri davomida orttirgan mulklari ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi.

Baxt kaliti bizning ijodkorligimiz qo'lida

Iova kitobida quyidagi iqtibos keltirilgan: Koinotning eng buyuk siri bu hayotdir. Hayotning eng ulug' siri bu insondir. Insonning eng buyuk siri bu ijodkorlikdir. Ya'ni koinot va inson siridan ulug'roq sir bu ijod siridir. Ijod lug'atlarda «vujudga keltirish», «yaratish», «paydo qilish» ma'nolarida keladi. Ijodkorlar payg'ambarlar vorislaridurlar. Yaxshi va baxtli saodatli oilani yaratish ham ijodkorlikni taqozo etadi. Zero, hayot bir tekisda ketmaydi va hech kim o'z idealidagi umr yo'ldoshini to'liq topa olmaydi. Insonning o'zi noqis bo'lib, u umr yo'li davomida kamolotga yetishish uchun harakat qilmog'i lozimdir. Biz dunyoga hayot kechirish uchun keldik. Biz hamkorlar bilan murosa va madora asosida yashamog'imiz shartdir. Agar inson, xoh erkak, xoh ayol yaxshi yashamoqni istasa, u hayotga ijodkorona munosabatda bo'lishi kerak va har soatu daqiqada o'zini ijodkorlik mahoratini ko'rsatmog'i lozim.

Rizouddin ibn Faxruddin «Oila» asarida: «Er ila xotunning qonuniy suratda birga bir vujud bo'lishlaridan oila tashkil bo'lur. Er o'zi uchun bir xotun tanlab dunyoda bo'lgan tirikligida, shodligu qayg'usida, har bir yaxshi-yomon kunida suyanchiq bo'ladigan, joniga rohat baxsh etadigan bir sirdosh topur. Tarbiyali xotun ota-onasini, er hamda bolasini, butun oila xulqini, oilaga munosabatli bo'lgan do'stu qo'shnilarini, xodimu xodimalarini tarbiya-yu husni, xulqi bilan mamnun qilur. Ammo tarbiyasiz xotun buning aksini qilib, ota-onasini, eru bolasini el masxarasiga qoldirur. O'zi ham baxtsiz o'laroq yashar, bolalarini tarbiyasiz qoldirib, umrlarini barbod qilur».

«Er va xotinning bir-birlariga boʻlgan mehru vafosi bizga ota-bobolarimizdan qolgan bebaho merosdir»¹.

Yurtboshimiz taʼkidlaganidek, millatimizning davomchilari boʻlgan yoshlarni jismonan sogʻlom, maʼnan yetuk, mustaqil fikr egasi, yaʼni barkamol avlod etib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muammosi hisoblanadi.

Buyuk allomalarimizning inson kamoloti borasidagi qimmatli fikrlari hozirgacha yuksak ahamiyat kasb etib kelmoqda. Shuning uchun hozirgi davr talabi va dolzarb muammo yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, maʼnaviy yuksak eʼtiqodga ega boʻlgan umuminsoniy fazilatlar ruhida shakllantirish, yuqori malakali mutaxassislar qilib yetishtirish nafaqat psixologlar, pedagoglar, murabbiylar, shu soha mutaxassislari, balki barchamizning muhim vazifamiz boʻlmogʻi kerak.

Markaziy Osiyoda otinlar maktabining asoschilaridan, ayollar taʼlimiga katta hissa qoʻshgan, oʻziga xos maktab yaratib shuhrat qozongan otinlardan biri Jahon otin Uvaysiydir. Uvaysiy oʻz shogirdlariga savod oʻrgatibgina qolmay, ular orasidan iqtidorli qizlarni tanlab Sharq sheʼriyati bilan tanishtiradi. Qizlarni nazm boʻstoniga yetaklaydi. Shu boisdan qizlarga sheʼr sanʼatidan dars berganda oʻsha davr shoirlari bilishi zarur boʻlgan naziragoʻylik, radifgoʻylikni ham oʻrgatgan. Har bir shoir mushohada kuchiga ega boʻlishi zarurligini uqtirgan.

Jahon otinning koʻp asarlari insoniy muhabbat, goʻzallikni ifoda etadi. Uning sheʼrlaridagi asosiy lirik qahramon hayotni butun goʻzalligi bilan sevuvchi, unga maftun boʻlib, shodlanuvchi, jabr-zulmga qarshi kurashuvchi, doʻstlik, vafodorlikka sodiq, chin oshiq, aqlli va bilimdon ayoldir. Bu olijanob insoniy fazilatlar kishilardagi vafosizlik, bemehrlik, yolgʻonchilik kabi salbiy ilatlarga qarama-qarshi qoʻyiladi.

Uvaysiyning maʼrifiy faoliyatida uning ayollar savodxonligini oshirish, aqliy tarbiya, musiqa sanʼati, qobiliyatli qizlar bilan ish-

¹ Rizouddin ibn Faxruddin. «Oila». – Toshkent, 1991.



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/oz/asar/4109> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/4109> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно
найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/4109>